

## Past bosimli va mash'ala yo'ldosh gazlarni utilizatsiya qilish yo'li orqali suyuq uglevodorodlarni ishlab chiqarishni tadqiqotlash

**Nurboyev Mirkomil Sarvar o'g'li**

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi Qashqadaryo  
viloyat bo'limi davlat inspektori

**Annotatsiya:** Respublikamizda mashinasozlik va kimyo sanoatida olib borilayotgan ulkan ishlarimiz gazdan suyuq yoqilg'ini va kimyoviy mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadallashtirish hamda eksportga chiqarish talablarini qo'yimoqda. Neftkimyo sanoatining jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda mustahkam tejamkor xom-ashyo bazasini yaratishda neftning va gazning tarkibidagi yengil uglovodorodlarni yo'qotilishini oldini olish va tiklashda yangi texnologiyalarni qo'llash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy gaz, xomashyo, suyuq yoqilg'i, mashinasozlik va kimyo sanoati,

### **Asosiy qism.**

Hozirgi davrga kelib "yengil neftga" bo'lgan talabning oshganligi sababli, distillyatorlarning chiqishini kuchaytirish orqali yengil fraksiyalarni olish va yoqilg'i neftga bo'lgan ishlab chiqarishni kamaytirish va uning o'rniga sintetik suyuqlik yoqilg'isini ishlab chiqarishni oshirish masalasi o'rta qo'yilgan.

Bunda qayta ishlashning istiqbolli yo'li isbotlangan: tabiiy gazni sintez qilish orqali DME, benzin va tabiiy gazdan istiqbolda motor yoqilg'isini olish texnologiyasi har qanday texnologiya bilan raqobotlasha oladigan usuldir.

O'zbekiston Respublikasi sharoiti atmosferaga qo'yib yuboriladigan katta miqdordagi gazlardan sintetik suyuq yoqilg'isini samarali olish imkoniyatining mavjudligi, ikkinchidan atmosfera havosining musaffoligi saqlab qolinadi.

Respublikamizda sintetik suyuq uglevodorodlarni ishlab chiqarish bo'yicha amaliy qadam qo'yilgan. Jumladan 2012 yilda Janubiy Afrika Respublikasi ning "Sasol" kompaniyasi va Malayziyaning "Petronas" korporatsiyasi bilan hamkorlikda qiymati 4 milliard dollardan ziyod bo'lgan mablag' asosida tozalangan metan gazi asosida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha istiqbolga ega bo'lgan yirik loyiha amalga oshirilmoqda

Shuning uchun sintetik suyuq uglerodlarni ishlab chiqarish texnologiyasini chuqur o'rganish yosh mutaxassislarimizning oldida turgan eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarurdir.

Bu o'rinda gap, avvalo, dastlabki xom-ashyoni va yarim tayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning uchun neft-gaz, neft-kimyo va kimyo, yengil sanoat va elektrotexnika tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etishni yo'lga qo'yish haqida bormoqda" deb ta'kidlab o'tdilar hamda shu orqali respublikamizning neft va gaz sohasini kelgusidagi rivoji bo'yicha asosiy vazifalarni belgilab berdilar.

Ana shunday muhim obyektlar haqida gapirganda, Janubiy Kareyalik investor va mutaxassislar bilan hamkorlikda Surg'il koni negizida barpo etilgan Ustyurt gazkimyo majmuasini alohida ta'kidladi. Umumiy qiymati 4 milliard dollardan oshadigan ushbu majmua dunyodagi eng zamonaviy yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan yirik korxonalardan biri bo'ldi. Majmuaning ishga tushirish yiliga 83 ming tonna noyob polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish imkonini berdi. Ayni vaqtda korxonaning polietilen ishlab chiqarish hajmini 3,1 barobar ko'paytirish, mingdan ziyod yuqori malakali mutaxassislarni ish bilan ta'minlash uchun imkoniyat yaratadi.

Xususan, hisob-kitoblarga qaraganda, hozirgi vaqtda tabiiy gazning bir yillik iste'moli dunyo miqyosida 3,1 trillion kub metrni tashkil etmoqda. 2020 yillarga borib neft mahsulotga bo'lgan kunlik talab o'rtacha 100,2 million barrel va tabiiy gazga bo'lgan bir yillik talab esa, 5,5 trln.m<sup>3</sup> ga yetishi to'g'risidagi taxminlar qilinmoqda. Ayrim mutaxassislar tomonidan 2020 yildan keyin esa, ushbu talab 6 trillion kub metr tabiiy gaz va kunlik ehtiyoj 103,2 million barrel neftga yetishi taxmin qilinayapti.

#### **Xulosa:**

O'zbekistonda tabiiy gaz zaxiralari va qazib chiqarish ko'rsatkichlari Respublikada elektr energiya ishlab chiqarish uchun 45 ta elektr stansiyalari mavjud bo'lib, 12,4 ming. MVt elektr energiya ishlab chiqarish quvvatiga ega, bir yilda 55 mlrd. kVt atrofida elektr energiya ishlab chiqariladi. Elektr energiya ishlab chiqarish uchun respublikada qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 56% va ko'mirning 85% ishlatiladi.

O‘zbekiston miqyosida hozirgi vaqtda neftga bo‘lgan talab ortib borayotgani va suyuq uglevodorodlarni ko‘paytirishga ma’lum darajada ehtiyoj bo‘lgani sezilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2013 y. sanadagi “Xalqaro quyosh energiyasi institutini tashkil etish” to‘g‘risidagi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2013 y. sanadagi “Alternativ energiya manbalarini rivojlantirish chora va tadbirlari” to‘g‘risidagi farmoyishi.

3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 15.12.2000 г. №ПП-1442 «О приоритетах развития промышленности Республики Узбекистан в 2011-2015 гг. ».